

**ABDULLA ORIPOV “JANNATGA YO‘L” DOSTONIDA
ILGARI SURILGAN BADIY G‘OYALAR**

*Surayyo Jo‘rabayeva Ilhomjon qizi
Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti
O‘zbek tili yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
email: surayyojurayevamss@mail.ru
tel: +998 97 826 88 48*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” dramatik dostoni haqida , dostondagi ulug‘langan do‘stlik, sadoqat timsoli bo‘lgan personajlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Doston, jannat, do‘zax, savob,she’rlar, dunyo, do‘stlik, tarozibon, yigit, hayot, dramatik, shoir, gunoh, obraz.

**ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ИДЕИ АБДУЛЛЫ ОРИПОВА ПРЕДСТАВЛЕНЫ В
ЭПОСЕ “ПУТЬ В РАЙ”**

Аннотация: В данной статье содержится информация о драматическом эпосе Абдуллы Орипова “Путь в небо”, о персонажах, являющихся символами прославленной дружбы и верности в эпосе.

Ключевые слова: эпос, рай, ад, награда, стихи, мир, дружба, Весы, юноша, жизнь, драматический, поэт, грех, образ.

**ABDULLA ORIPOV'S ARTISTIC IDEAS PRESENTED IN THE EPIC
“THE WAY TO PARADISE”**

Annotation: This article contains information about Abdulla Oripov’s dramatic epic “The Road to Heaven”, about characters who are symbols of glorified friendship and loyalty in the epic.

Key words: epic, heaven, hell, reward, poems, world, friendship, Libra, young man, life, dramatic, poet, sin, image.

Abdulla Oripovni nomini eshitgan har bir insonning yodiga albatta birinchi navbatda, uning biz, o‘zbek xalqiga, yurtimizdagи yosh-u qarining yoshligidan qon-qoniga singib ketgan davlatimiz madhiyasi gavdalanadi. U yozgan yetuk mazmun va mohiyati ma’nosи jihatidan har bir inson qalbini chuqur o‘rtovchi bir - biridan ajoyib she’rlari yodga keladi. Albatta Abdulla Oripov chindan ham o‘zbek va O‘rta Osiyo xalqining sevimli shoiridir. U yozgan she’rlar har bir o‘quvchining qalbini tub-tubidan

chuqur joy ola bilgan. She’rlari ko‘plab xonandalar tomonidan kuyga solingan. Eng e’tiborga molik tomoni, O‘zbekiston davlatini ramzi hisoblanamish davlat madhiyasi ham aynan Abdulla Oripov tomonidan yozilganligi bu shoirni ijodi qay darajada yuksakligidan darak beradi. Bu shoir faqatgina she’rlar yozibgina qolmasdan, badiiy asarlar yozishga ham qo‘l urgan ijodkor hamdir. Shoirning dramatik dostonlaridan biri "Jannatga yo‘l" dostonidir. Bu dramatik doston chuqur mazmun va mohiyatiga egaligi bilan o‘quvchilar qalbini larzaga keltira olgan asardir. Bu asarni o‘qigan o‘quvchi bu foni yunyoda qanday yashash kerakligi, qanday xatolar qilmasligi, ota-onani qay darajada hurmat qilib e’zozlashligi va ayniqsa chin do‘sti uchun u dunyoyi bu dunyo sodiq qolib borini berish kerakligi haqida o‘rgatadigan ham asardir.

Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” she’riy dostoni 1980-yilda nashr qilingan

bo‘lib, diniy mifologik va fantastik unsurlar asosida narigi dunyo timsolida yozilgan bo‘lishiga qaramasdan, bugungi kunimiz, odamlar orasidagi munosabatlarni qamrab olgan. Har bir yaratilgan asar markazida borliq, inson turadi, u xoh ijobiy qahramon sifatida gavdalantirilsin, xoh salbiy qiyofada aks ettirilsin, buning farqi yo‘q. Biz tevarak-atrofimizdagi voqe-hodisalar, yaqinimizdagi insonlar bilan uzviy bog’langanmiz. Shoir dostonda yartga 15 ta katta va kichik qahramonlar timsolida insonning insoniy qiyofasi, o‘zligini yo‘qotishga olib boradigan illatlarni zo‘r mahorat bilan qalamga olgan. Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” dramatik dostoni fantastik va afsonaviy-mifologik mavzu asosida yaratilgan. Dostonda aks ettirilgan voqe-hodisalar “narigi dunyo” da sodir bo‘ladi (Dante Aligerining “Ilohiy komediya” si va Fitratning “Qiyomat” (1923) hikoyasi qahramonlari ham “u dunyo” da harakat qiladilar). Asarda ota-onasi hurmati nihoyatda ulug‘lanadi.

Masalan. bu dunyoda otasini bir martagina sansiragani uchun yetti marta hajga borgan mo‘ysafidning jannatga tushmagani aytildi. Asar mohiyatan olib qaraganda, insonni hayotdagi o‘rni uning qilgan savobli ishlari-yu, bajargan amallarining hosilasini asarda “Tarozibon” deya atalmish bir obraz orqali ochib beriladi, tarozibon misli adolat tarozisidurkim, u har insonni savol-javob qilib-la, jannat yoki do‘zaxdan o‘rin olishligini belgilaydi.

Shoir Yigit bir qizaloqni soydagি toshqindan qutqarib bevaqt vafot etgan. U tarozibon huzurida gunohini tan oladi. Yigit arosat dashtini aylanadi, jannat darvozasi qoshiga boradi, ota-onasi bilan uchrashadi. Yigit hayot tajribasi oz bo‘lgani bilan oq-qorani yaxshi tanuvchi, ayniqsa, hayot mashaqqatlarini obdon boshdan o‘tkazgan odam. U do‘zaxdan dahshatliroq hodisalarni, kunlarni, shaytondan dahshatliroq odamlarni ko‘rgan va chidashga majbur bo‘lgan. “Jannatga yo‘l” dostonida Sado obrazi lirik qahramon tarzida berilgan bo‘lib, ilohiy qudrat deb baholanuvchi haq va adolat kuchi timsolidir. Dostondagi Yigit obrazini ochishda Do‘st, Do‘st obrazini ochishda Yigit obrazni muhim ahamiyatga ega. Do‘st “u dunyo” da ham odamlar

haqidagi o‘z fikrida qat’iy turadi. Shu Yigitning oliyjanob va insoniy qiyofasidagi yangi-yangi qirralar namoyon bo‘ladi:

O‘ylab qara, tarixda bor ibrat doimo:
Ne - ne zotlar gar o‘zлari topsa ham to‘zim.
Odamzodga ko‘rmaganlar yomonlik ravo.
Ezgulikning yo‘li og‘ir, serg‘alva garchand.
Yuksaklarga ko‘taradi sohibin biroq.

Yigit Do‘stga yetishmaydigan ikki paysa savobni o‘z savoblari hisobidan berishga qaror qiladi. Do‘st ham shu fikrda edi. Yigit va Do‘st esa o‘zi jannatga kirib, qadronini uning tashqarisida qoldirib ketishni nomardlik deb biladi. Asarda kimsa, o‘spirin, qariya, hur qiz obrazlarida xuddi bu dunyodagidek, u dunyoda ham izg‘ib yurgan ig‘vogar, o‘z manfaati yo‘lida bir-biri bilan it-mushukdanda battar, beor janjalkashlar, o‘ylamay gapiruvchilar keskin tanqid qilingan. Doston nihoyasida Sado jannat eshiklari ochilganidan xabar berib, Do‘stga ham, Yigitga ham jannat ato etajagini ma’lum qiladi. Shoir ushbu asarida ezgulikni imkon borida yoxud imkon boricha ro‘yobga chiqariladigan xohish emas, amalga oshirilishi zarur ehtiyoj sifatida talqin etgan. U dunyo va bu dunyo bir qaraganda juda olis yetib borib bo‘lmas manzildek tuyuladi, lekin aslini olib qaraganda u dunyo bilan bu dunyo orasi soniyalardan ham oz vaqtida yetib borish mumkin bo‘lgan yaqin manzildir. Bu vaqt oralig‘ida kim qanday yashaydi kim qanday hayot kechiradi faqat va faqat har bir insonning o‘ziga bog‘liqdir. Zero hech kimsa peshonasiga do‘zax yoki jannat bitilib tug‘ilmaydi bu tanlovni o‘zi hayoti davomida belgilaydi bu foni yunyodir, bu o‘tkinchi dunyo, bu xiyonatkor dunyo, lekin u dunyo abadiy dunyodir, abadiy dunyoda qaysi tomonda jannatda yoki do‘zaxda yashashimizni belgilab berguvchi dunyo esa bu dunyodir...

“Jannatga yo‘l” nomiga qaraganda Abdulla Oripovning bu asari bugungi hayotdan uzoqdagi biror afsona yoki yarim afsona, ertaksimon voqeа tasviri bo‘lsa kerak, deb o‘ylaysiz. Biroq asar nomi affonaviy jannat bilan bog‘liq bo‘lsa ham, asl mazmuni bilan kundalik hayot voqealarini aks ettiradi. Dostonda bugun uchrab turadigan, biz ko‘rib, kuzatib yurgan illatlar, ular natijasida yuzaga keladigan dramatik va satirik voqealar qayd qilinadi. U dunyo, jannat, do‘zax, so‘roq, qiyomat — bular shunchaki vosita. Aslida mana asar qahramoni qiyofasi: Gunoh va savoblari ilohiy tarozisiga solinayapti. Qahramon o‘zini bekami-ko‘st hisoblab, to‘g‘ri jannat tomon yo‘l olishni kutadi. Kutilmaganda tarozibon jannatga o‘tish uchun u qilgan savoblar yetarli emasligini bildiradi. Qahramon taajjubda. U hayotda sohibi qalam bo‘lgan. Kitobxon ham taajjubda. Nahotki, sohibi qalam bo‘lmish zotning savobi yetmas gunohiga!

Dalillar oldida lol qolamiz: u hayotda nuqlu samo shu’lasin kuylagan, yulduzlarga, gulga, ohuga she’rlar bag‘ishlagan. Qora yurak va hasadgo‘y, manfur olchoq va tovlamachi, tekinxo‘rlar uning nigohidan chetda qolib ketgan. Inson nomiga nomuwofiq bu kuchlarga qarshi u o‘z qalami kuchidan foydalana olmagan. Hatto tarozibon oldida ham ularga ro‘para kelishidan bezor, “ko‘rsatma menga

ularning yuzini” deb zorlanadi. Bu yerda Abdulla Oripov diniy mifologiyadan foydalanib san’atkor vazifasiga tegishli muhim fikrni o‘rtaga tashlaydi. Hayotning go‘zal tomonlarini, uning insonga zavq bag‘ishlaydigan jahbalarini aks ettirish qalam sohibining birinchi darajali vazifalaridan. Biroq hayotni to‘la aks ettirish, inson va jamiyatga xiyonat qilish uchun faqat nur va gulruxsor tasvir va ta’rifi yetmaydi. Hayotni toza saqlash uchun uchrab turadigan qorong‘ilik, kajraftorlikka qarshi keskin kurash e’lon qilish kerak-ku! Muallif asarida mana shu haqiqatni ulug‘laydi.

Shoir hajviy ma’noni nihoyasiga yetkazish uchun yo‘l izlaydi. U ikki paysa savob axtarib qahramonning arosat sahrosidagi sarguzashtlarini tasvirlaydi. Bu sarguzashtlarning har bir halqasiga bosh ma’noni ochib beradigan epizodlarni singdiradi? Ota-onasini sansirab, bir lahma bo‘lsa ham ranjitgan kimsa bormi, hatto xudoga ham, tarozibonga ham chap berib, to‘g‘ri behishtga o‘tib ketadigan uchqur va olg‘irlar bormi, ajdodlariga yodgorlik deb qabr tosh yo‘ndirib, katta harflar bilan o‘z nomini bezatgan shuhratparastlar bormi; inson ruhiga javobgar bo‘la turib, o‘zlarini nomus va vijdonni toptab, ruhiy majruhlarni ko‘paytiruvchilar bormi; ig‘vo urug‘ini sepib, dillarni xun qiluvchi hasadgo‘ylar bormi; orqa-oldiga qaramasdan talant-shuhrat talashib bir-birini bo‘g‘adigan beandisha yosh bilan nafsi balo keksa bormi; ig‘voni o‘ziga kasb qilgan, bu yo‘lda hech bir odamni, biror kimsa topilmagan paytlarda ig‘vo qilib hatto o‘z ota-onasini bir-birlaridan ajratib yuborishga ham qodir, hatto “odillarning odili” deb tan olinmish afsonaviy tarozibon ustidan ham ig‘vo qilib, uning ishlarini ham tekshir-tekshirgacha olib boradigan yuzsizlar bormi — xullas shoir qiyomat, gunoh va savob hisobi, do‘zax va behisht vosita real hayotda uchrab turadigan bu xildagi axloqsizliklar ustidan hukm chiqaradi. Abdulla Oripov hayotning shu ma’nosini qalam orqali doston etib, insonlar ongiga singdirishga harakat qilgan kuchli ijodkor bo‘lgan. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, asli bu foni yunyoda barchamiz bir mehmondurmiriz, mol-u dunyo, hoy-u havaslar bari o‘tkinchi, insondan faqatgina yaxshi nom va u qilgan savobli ishlari-yu, qoldirgan ma’naviy merosi qolajak. Abdulla Oripov ham biz o‘zbek xalqiga o‘zining yuksak darajadagi mukammal she’rlari-yu, asarlarini qoldira bildi va xalqimiz bundan minnatdordir. Biz kitobsevarlar shoirning she’rlari va asarlarini o‘qib rohatlanib, so‘ngida qo‘limizni duoga ochib u yunyoda ham o‘zi tasvirlagan jannatlarda yaqinlari oldida mag'rur yurishligini Allohdan so‘rab qolamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abdulla Oripov “Jannatga yo‘l” dostoni M.Qo‘shtonov, N.Aminov, J.Umarbekov va boshqalar. Toshkent 1980
2. Abdulla Oripov “Ehtiyoj farzandi” 1988
3. www.ziyonet.uz
4. google.com